

OILA TARBIYASINI TASHKIL ETISHDA OTA-ONANING ASOSIY VAZIFALARI

Usanov Sh.A.

(Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi)
sh.usanov2021@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada oila tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarning asosiy vazifalari ilmiy pedagogik jihatdan asoslanib, ota-onalarning tarbiyachilik malakalarini takomillashtirishga oid tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: oila, ota-ona, bola, vazifa, ijtimoiy rivojlantirish, mas'uliyat, bilim, madaniyat, tarbiya, takomillashtirish.

АННОТАЦИЯ

В статье обоснованы основные задачи родителей в организации семейного воспитания на основе научно-педагогических аспектов, а также даны рекомендации по повышению воспитательного мастерства родителей.

Ключевые слова: семья, родители, ребенок, задача, социальное развитие, ответственность, знания, культура, воспитание, совершенствование.

ABSTRACT

In the article, the main tasks of parents in the organization of family education are based on scientific and pedagogic aspects, and recommendations are given to improve the educational skills of parents.

Key words: family, parents, child, task, social development, responsibility, knowledge, culture, education, improvement.

«Faqat baxtli odamgina, baxtli insonni tarbiyalay oladi: nima qilsangiz ham baxtli bo'ling, aks holda bolalarni tarbiyalay olmaysiz», -deganda A.S. Makarenko haq bo'lgan.

Yosh avlodning barkamol bo'lib tarbiyalanishi ota-onalarning asosiy vazifalari bilan amalga oshirilishi barchaga ma'lum. Aksincha ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi bilimsizligi, ma'lumoti kamligi, yetarli emasligi oilaga, jamiyatga, asosan bolalarga baxtsizlik, qiyinchiliklar va zahmat keltirishi hammaga ayon. Oila

tarbiyasida ota-onalarning bola tarbiyasi borasidagi harakati, yuqoridagi muammolarni, nuqsonni bartaraf etishda hal qiluvchi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kaykovus «Qobusnoma» asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi qator vazifalarini sanab ko'rsatgan:

1. Bolaga yaxshi ot qo'yimoq;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. O'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmiy qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish»[3.85] kerak deb bildirgan fikri

bag'oyat hayotiyiligini ijtimoiy hayotning o'zi isbotlab turibdi.

Ammo ba'zi ota-onalar o'z farzandlariga ma'yorida ortiq g'amho'rlik qilishlari maqsadga muvofiq emas deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 73-moddasi Ota-onalarning bolalariga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlarida «Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart»[2.192], -deb belgilab qo'yilgan. Ana shu g'oyalar oila tarbiyasi mazmunini va ota-onaning vazifalarini belgilashga asos, negiz bo'ladi.

Albatta bunday barkamol farzandni tarbiyalash oilada ota-onalar zimmasiga yuklatilgan. Buning uchun avvalo ota-onalar oila tarbiyasining mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifasi, shakli va metodlari to'g'risida atroflicha keng ma'lumotga ega bo'lishi shart.

Oilada ota-onalar bolalar tarbiyasini o'zlarining uzoq kelajagini o'ylab tashkil etishlari darkor. Shu o'rinda «Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang, sholi ek, o'n yilga ta'minlamoqchi bo'lsang daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang odam tarbiyala», -deb aytilgan qadimgi sharq xalqlar maqolalaridan birini eslash kifoya. Yoki ota-onalarga xalqning «Har kim ekkanini o'rar», hikmatini eslatish o'rinli.

Agar ota-onalar oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini aniq, ravshan tasavvur eta olmasalar, bolalar tarbiyasi noaniq, taxminiy, maqsadsiz olib boriladigan hamda natijalari esa shunga yarasha kechadi. Har bir ota-ona o'z farzandlarining kamolini ko'rishni, hayotda baxt-saodatga erishuvini va keksayganda farzandlari oldida piru badavlat, izzat-hurmatli, ardoqli ota-ona bo'lishini hohlaydi va shunga harakat qiladi. Ardoqli ota-ona bo'lish uchun esa oila tarbiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iboratligi to'g'risida ilmiy ma'lumotga ega bo'lishni kundalik hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Shu o'rinda ota-onalar oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini nafaqat bilish emas, balki hozir o'z farzandlari ongiga zaruriy fazilatlarini o'z vaqtida, o'rnida

singdirmas ekan, keksaligida farzandlar oldida izzat-hurmatga sazovor, ardoqli ota-ona bo‘la olmasligini eslatish joiz.

Shuning uchun qomusimizda belgilangan ota-onalik ma’suliyati ularning maxsus pedagogik bilimlarga, ko‘nikmalarga va pedagogik madaniyatini tarkib toptirishni ob’ektiv hayot talab qilmoqda.

Haqiqatdan ham oilada bolalarni oilaga, ona-Vatanga sodiq va sadoqatli etib tarbiyalash uchun birinchi navbatda ota-onalarning umumiy hamda pedagogik madaniyatlarini oshirish-hozirgi oila tarbiyasining dolzarb muammosidir.

Mazkur tezisdagi ilmiy pedagogik jihatdan asoslanayotgan va tavsiya etilayotgan xulosalar oilada ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi ma’lumotlarining hamda pedagogik madaniyatlarining ortishiga va mustahkamlanishiga bevosita amaliy yordam beradi degan fikrdamiz.

Bizningcha, ota-onalar oila tarbiyasining quyidagi yo‘nalishdagi eng asosiy vazifalarini bilishlari zarur va bolalar tarbiyasida tadbiiq etishlari darkor:

-farzandlarni oilani boshqarish to‘g‘risida ma’lumot, ko‘nikma, mahoratga ega bo‘lmog‘i va ularning ma’naviy-axloqiy saviyasini tarkib toptirmog‘i;

-farzandlarini oila va ijtimoiy hayotda faol fidoiy hamda mustaqil bo‘lib yashashga o‘rganmog‘i, odatlantirmog‘i;

-farzandlarga aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy, iqtisodiy, siyosiy huquqiy, ekologik jihatdan ta’lim-tarbiya berish va ularni hayotda qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikma, odat hamda xulq-atvorni tarkib topdirishi;

-farzandlar hayotini rejim asosida tashkil etishi, o‘qish, mehnat faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratishi va oilaning ichki tartibini joriy etishi hamda nazorat qilishi;

-farzandlarga o‘quv muassasalari, mehnat jamoalari, mahalla, davlat organlari tomonidan qo‘yilgan umumiy talablarning bajarilishini ta’minlashi va ular bilan hamkorlikda ishlashi;

-farzandlarga o‘z shaxsiy manfaatlarini oila, davlat va umumjamiyat talablariga moslashtirishi, uyg‘unlashtirishi hamda ulardan ustun qo‘ymaslikka odatlantirishi;

-farzandlar orasida spirtli ichimliklar, giyohvandlik moddalarni iste’mol qilmaslik haqida targ‘ibot ishlarni olib borishi va shu sohadagi faoliyatlarini man etish, uzluksiz nazorat qilishi;

-farzandlarga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, oila, o‘quv ishlab chiqarish va ijtimoiy foydali hamda kasb-korlik mehnatini tashkil etilmog‘i, o‘rgatmog‘i hamda mehnat ahlini hurmatlash va qadrlashga amaliy tayyorlashi;

- o‘zini va o‘zgalarni: fuqarolarni, keksalarni, xotin-qizlarni, nogironlarni, bolalarni, ota-onalarni, opa-singilni, aka-ukalarni, qavmi qarindoshlarni qadrlash, izzatlash-hurmatlash va ularga yordam ko‘rsatishga odatlantirishi;

-farzandlarning iste'dod-qobiliyatini hisobga olib kasb tanlashga yo'llashi, tashabbusini boshqarishi, hamda yangicha fikrlashga, ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka o'rgatib, tayyorlab borishi;

-farzandlarda tabiatga, o'simliklarga, jonivorlarga, tarixiy yodgorliklarga, adabiyotga, san'atga, mehr-muhabbatni tarbiyalashi;

-farzandlarni hayotda yaxshi ezgu niyat qilishga, hayotdan umidvor bo'lib halol yashashga o'rgatish;

-adolatsizlikka, nohaqlikka, ko'zbo'yamachilikka, poraxo'rlikka qarshi kurashni, halollikni, adolatni himoya qilish kabi ko'nikmalar va odatlarni tarkib toptirishi;

-farzandlarni jamoatchilikda o'zini tuta bilish, boshqarish, jamoat transportida yurishga o'rgatishi, jamoa tadbirlarida faol va fidoiy bo'lish, qo'shni oilalar, mahallalar bilan tinch-totuv yashashga odatlantirishi;

-farzandlarga diniy ta'lim-tarbiya berishi, milliy kiyinishga o'rgatishi;

-farzandlarni qonunlarga rioya qilishga, hurmat qilishga va uning amalda bajarilishini ta'minlashga odatlantirishi;

-farzandlarga xalqning tarixi, tili madaniyati, ma'naviyati, mafkurasi, fani, san'ati, dini, ichki va tashqi siyosati, mudofaa qudrati kabilar haqida ma'lumot berib borishi;

-farzandlarining yosh va individual xususiyatlarini bilishi hamda ularga kuchli ta'sir krsatishning xilma-xil metodlari, uslublari va vositalarni bilishlari;

-farzandlarda mehnat ko'nikmalari, mehnatsevarlik, mehnat qilish xohishini, oilaviy va ijtimoiy mehnat faoliyatga amaliy tayyorlashi, odatlantirishi va hok.

Bugungi jamiyatimiz ta'limning bosh maqsadi o'quvch-yoshlarni jamiyat, davlat va oila oldida o'zining ma'suliatini chuqur anglaydiga, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o'qitib tarbiyalashdan iborat.

Shuningdek, Abdurauf Fitrat «Oila va oila boshqarish tartiblari» asarida: «Uylanishning birinchi maqsadi farzanddir. Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki, biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onadan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo'lishlari eng yaxshi fazilatdir»[1.112], -deb bildirgan fikri diqqatga sazovor va bola tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib, ota-onalarga oila tarbiyasining vazifalari haqida ma'lumot berish, pedagogik madaniyatni oshirish, oilada farzandlarni oilaparvar, millatparvar, vatanparvar, ijtimoiy faol, ma'naviy boy barkamol insonni shakllantirishning, oilani mustahkamlashning hamda jamiyatni ijtimoiy rivjlantirishning zarur sharti bo'lmog'i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurauf Fitrat. *Oila va oila boshqarish tartiblari*. - Toshkent: «Ma'naviyat», 1998. -112 b.
2. *O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: (2012 yil 1-maygacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan)* - Toshkent: «Adolat», 2012 y. -192 b.
3. Kaykovus. *Qobusnoma*. - Toshkent: «Istiqlol», 1994. -85 b.